

---

## Xotira va qadrlash kuni

Yurtimiz o'g'lonlarining urush yillarida ko'rsatgan mardlik va qahramonligi biz uchun ulkan jasorat maktabi, g'urur-iftixor manbaidir. Ma'lumki 9 may - g'alaba bayrami yurtimizda "Xotira va qadrlash kuni" sifatida keng nishonlanadi.

Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan ajdodlarimizning xotirasiga hurmat keltirilib, fashizmga qarshi janglarda jonbozlik ko'rsatgan mard, jasur faxriylarimizga e'tibor, ehtirom ko'rsatish an'anaga aylanib qolgan.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Toshloq tuman bo'linmasi xodimlari tumanimizdagi Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari Odiljon ota Zokirov hamda Fayzullo ota Eminovlar xonadonlarida bo'lib, urush va mehnat faxriylarini yaqinlashib kelayotgan "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan tabriklab, ko'ksiga g'urur va iftixor bilan davlat bayrog'i aks etgan lentalar taqildi.

Davlatimiz bayrog'i aks etgan lentalarni taqish tuman bo'ylab davom etmoqda.

2023-05-08 15:29:42